

MUDOFAA VAZIRLIGIDA OMMAVIY SPORT VA JISMONIY TAYYORGARLIKNING RIVOJLANISHI

Yernazarov Polat Yembergenovich

OTQMBY jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Mudofaa vazirligida ommaviy-sport va jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tayyorgarlik, harbiy-amaliy ko‘nikma, jismoniy sifat, harbiy-sport musobaqalari.

Аннотация. В этой статье рассматривается развитие массового спорта и физической подготовки в Министерстве обороны.

Ключевые слова: Физическая подготовка, военно-прикладные навыки, физическое качество, военный-спортивный состязания.

Abstract: This article examines the development of mass sports and physical training in the Ministry of Defense.

Key words: Physical training, military-practical skills, physical quality, military sports competition.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh. M. Mirziyoyevning g‘ayrat-shijoati va konseptual dasturlari asosida barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo‘lmish jismoniy tarbiya va sport Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari tarkibiga kiritilgan bo‘lib, o‘tgan davr ichida ushbu sohada asrlarga teng islohotlar amalga oshirildi. Respublikamizning barcha hududlarida, hatto uzoq-uzoq qishloq joylarda ham jahon standartlariga mos sport inshootlari o‘ziga xos go‘zal infrastrukturallari bilan birgalikda bunyod etildi. Jismoniy tarbiya va sport, shu jumladan, professional sport ham, tezkor sur‘atlar bilan cho‘qqi sari qanot yozmoqda. Davlatimizning oqilona siyosati va ajratilgan sharoitlaridan kelib chiqib har-bir oliygoh va maktablarda sportga bo‘lgan e‘tiborni nechog‘li yuksakligini ta‘kidlamasdan ilojimiz yo‘q. Shular qatorida bizni bilim yurtimizda ham jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan e‘tibor alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida bugungi kunda jismoniy tayyorgarlik va ommaviy sport tadbirlarini tashkillashtirish va o‘tkazish bo‘yicha bir qator yangi talablar joriy etilgan bulib, ushbu o‘zgarishlar o‘zining ijobiy natijalarini kursatmoqda[1].

Ommaviy sport tadbirlarini tashkillashtirishda asosiy muammolar:

Mashg‘ulot tizimining samarasizligi, mashg‘ulot jarayonlari ko‘pincha ilmiy asoslanmagan, standart dasturlarga suyanadi;

Jismoniy holatni baholashda zamonaviy texnologiyalar yetishmasligi, yurak urishi, kislorod sarfi, harakat biomexanikasi kabi ko‘rsatkichlar kuzatilmaydi;

Psixologik tayyorgarlikning yetishmasligi, sport musobaqa oldida stress, ishonchsizlik, emotsiyaning boshqarishda muammo;

Quvvat manbalari yetishmasligi, mashqlardan keyin to'liq tiklanish ta'minlanmasligi. [2]

Ommaviy-sport tadbirlarini o'tkazish tartibi

Ommaviy-sport tadbirlari barcha harbiy xizmatchilarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi, sportga oid mahoratini oshirish va bo'sh vaqtni tug'ri tashkillashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Harbiy qismda olib boriladigan ommaviy-sport tadbirlari o'z ichiga quydagilarni oladi:

sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan o'quv-mashq mashg'ulotlari (sport musobaqalariga puxta tayyorgarlik ko'rish uchun o'tkaziladi);

sport va harbiy-sport musobaqalari;

sport bayramlari.

Shaxsiy tarkib bilan ommaviy-sport tadbirlarini yuqori va sifatli darajada tashkillashtirib, o'tkazish maqsadida harbiy okrug qo'shinlari (birlashma) qo'mondonining (harbiy qism komandirining (muassasa boshlig'ining) o'rinbosari raislik qiladigan sport qo'mitasi tuziladi.

Sport qo'mitasi harbiy okrug qo'shinlari (birlashma) qo'mondoni, harbiy qism (muassasa) komandirining (boshlig'ining) buyrug'i bilan tayinlanib, 5-7 kishidan iborat bo'ladi. Qo'mita tarkibiga qo'mita raisi, uning o'rinbosari, qo'mita kotibi, hakamlar hay'atining raisi va qo'mita a'zolari kiradi.

OHTM boshlig'ining qarori bilan, ushbu muassasa tasarrufidagi har bir batalyonning o'z sport qo'mitasi tuzilishi mumkin. [3]

Sport qo'mitasi zimmasiga:

ommaviy-sport tadbirlarini tashkillashtirishga doir buyruq loyihasini tayyorlash, ommaviy-sport tadbirlari rejasi, sport va harbiy-sport musobaqalari hamda sport ishlari ko'rigi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish;

sport ishlari ko'rigi, sport bayramlari va sohaga oid boshqa tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazish;

bo'linmalarining sport tashkilotchilari, sport turi murabbiylari, hakamlari bilan o'tkaziladigan o'quv-uslubiy yig'inlar hamda seminarlarni tayyorlash va o'tkazish;

harbiy qism (muassasa) miqyosidagi birinchilik uchun o'tkaziladigan sport va harbiy-sport musobaqalarida hakamlik qiladigan hakamlar brigadasini saralab olib, yo'l-yo'riq berish;

bo'linmalarda olib borilayotgan sport ishlari hamda harbiy qism sport jamoalarida o'tkazilayotgan o'quv-mashq mashg'ulotlarining holati ustidan nazorat olib borib, bo'linma komandirlari, sport tashkilotchilari va sport turi murabbiylariga yordam ko'rsatish;

ommaviy-sport tadbirlari, sport ishlarini tashkillashtirish va o'tkazishga doir ilg'or tajribalarni umumlashtirib borish hamda ommalashtirish;

harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, QK ishchi xizmatchilari ishtirokidagi sport tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish;

shaxsiy tarkibga sport unvonlari, razryadlari, hakamlik toifasini berish, harbiy xizmatchilarni sport sohasiga oid ko'krak nishonlari bilan taqdirlashga doir materiallarni o'rganib borish;

ommaviy-sport tadbirlarining holatini tahlil qilib borib, sohaga oid ishlar sifatini oshirishga oid takliflarni ishlab chiqish vazifalari yuklanadi. [4]

Sport qo‘mitasi o‘z faoliyati davomida mahalliy jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari bilan sohaga qaratilgan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Qo‘mita o‘z ishini harbiy qism (muassasa) komandiri (boshlig‘i) tomonidan tasdiqlanadigan tegishli oy davomida amalga oshiriladigan tadbirlar rejasiga asosan olib boradi. Sohaga oid eng muhim masalalar har yili ikki marotabadan kam bo‘lmagan tarzda o‘tkaziladigan yig‘ilishda muhokama qilib boriladi.

Bo‘linmalarga ommaviy-sport tadbirlarini tashkillashtirish masalasida yaqindan yordam berish, shuningdek, doimiy va muvaqqat ko‘rsatmalarni ijro etib borish – sport qo‘mitasi a‘zolari tomonidan olib boriladigan faoliyatning asosiy yo‘nalishlari sanaladi.

Bo‘linma komandirlariga ommaviy-sport tadbirlarini tashkillashtirib, o‘tkazish masalalarida yordam berishi uchun har bir bo‘linmada sport tashkilotchisi tayinlanadi. Uning zimmasiga:

bo‘linmada ommaviy-sport tadbirlarini tashkillashtirib, o‘tkazish ishlarida bevosita ishtirok etish;

meyor va talablarni bajargan harbiy xizmatchilarga taalluqli materiallarni rasmiylashtirib, komandirga taqdim etish majburiyatlari yuklanadi.

Birlashma, harbiy qism (muassasa) sport jamoasida o‘tkaziladigan o‘quv-mashq mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirib, o‘tkazib borish maqsadida tegishli sport turi bo‘yicha puxta tayyorgarlikdan o‘tgan harbiy xizmatchilar orasidan harbiy qism sport jamoasi boshlig‘i tayinlanadi. Uning zimmasiga:

sport jamoasida o‘quv-mashq mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirib, o‘tkazib borish;

tegishli harbiy xizmatchilarga sport razryadlari va unvonlarini berishga doir materiallarni rasmiylashtirish ishlarida bevosita ishtirok etish;

sport turiga oid musobaqalarni tashkillashtirib, o‘tkazib borish majburiyatlari yuklanadi.

Harbiy qism, muassasa va bo‘linmalarning sport turlari bo‘yicha terma jamoalari bilan o‘tkaziladigan o‘quv-mashq mashg‘ulotlari har haftada 4 marotaba 2 soatdan o‘tkazib boriladi.

Sport va harbiy-sport musobaqalari amaldagi qoidalarga muvofiq o‘tkaziladi. O‘tkazilgan musobaqa natijalari bir yil davomida saqlanadigan bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Turli sport musobaqalarini tashkillashtirib, sifatli o‘tkazish maqsadida harbiy qism komandirining buyrug‘i bilan hakamlar hay‘ati tayinlanadi.

Hakamlar hay‘ati a‘zolarining uslubiy tayyorgarlik darajasini oshirish va musobaqalarni uyushqoq o‘tkazib borish maqsadida tegishli musobaqa boshlanishidan bir hafta oldin sport qo‘mitasi raisi rahbarligida hakamlar hay‘atining 2 kunlik seminari tashkillashtirilib, o‘tkaziladi.

Musobaqa o‘tkazish tartibi - musobaqa o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomda belgilanadi. Ushbu hujjatda har bir sport turlariga doir vazifalar, musobaqa dasturi va shartlari, shuningdek, yakka va jamoa tarkibida erishilgan birinchilikni aniqlash, g‘oliblarni

taqdirlash va talabnomalarni taqdim etish tartibi belgilab o‘tiladi. [5]

Harbiy-amaliy va olimpiya sport turlari bo‘yicha umumarmiya o‘yinlari, chempionatlar, musobaqalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarining sport ishlari ko‘rigi bosqichma-bosqich o‘tkazib boriladi. Jumladan:

I bosqich – harbiy qism va bo‘linma miqyosida, OHTMda esa fakultet va batalyon miqyosida;

II bosqich – harbiy okrug, birlashma va OHTM miqyosida (harbiy okrug bosqichi);

III bosqich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi miqyosida (respublika bosqichi).

Harbiy xizmatchi, agar taklif qilingan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi yoki federatsiyalari tomonidan o‘tkaziladigan musobaqalarda ishtirok etishi mumkin. Harbiy xizmatchi tegishli musobaqada ishtirok etishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligida joriy etilgan tartibda xizmat safariga yuboriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni intellektual rivojlangan, jismonan baquvvat, sog‘lom qilib shakllantirish xamda kuchi, tezkorligi, chaqqonligi va chidamliligi kabi jismoniy sifatlarini oshirish borasidagi amaliy ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bu borada olib borilayotgan jismoniy tayyorgarlik va ommaviy-sport ishlarini yanada takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning jismoniy va uslubiy tayyorgarlik saviyasini oshirish, jismoniy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish borasida to‘plangan ilg‘or tajribalarni qo‘shinlarning soxaga oid faoliyatiga joriy etib keng qo‘llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi qonuni,1992 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I. Karimovning 2002 yil 24-oktyabrdagi O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish to‘g‘risidagi farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoevning 2017 yil 3 iyunidagi “Jismoniy tarbiya va ommaviysportni yanada rivojlantirishning chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2020 yil 7 maydagi 333-buyrug‘i
5. H. T. Rafiyev “Yengil atletika nazaryasi va amalyoti” o‘quv qo‘llanma 2021-yil
6. Abdullayev M. J. “YENGIL ATLETIKA” O‘rta va uzoq masofalarga yuguruvchilar uchun murabbiyining kasbiy-pedagogik faoliyati. O‘quv qo‘llanma. Buxoro. “Durdona” 2015-yil.